

№443, 17-dekabr, 2021 y.

**COVID  
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 16-dekabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	272 456 686	(+ 712 626)
Sog'ayganlar soni	-	244 786 939	(+ 528 565)
Vafot etganlar soni	-	5 345 363	(+ 8 095)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	51 290 979	(+ 136 590)
	Hindiston	-	34 718 669	(+ 8 039)
	Braziliya	-	22 201 221	(+ 5 446)
	Buyuk Britaniya	-	11 010 286	(+ 78 610)
	Rossiya	-	10 103 160	(+ 28 363)
	Turkiya	-	9 100 324	(+ 19 872)
	Fransiya	-	8 399 846	(+ 65 713)
	Germaniya	-	6 656 161	(+ 55 650)
	Eron	-	6 162 954	(+ 2 651)
	O'zbekiston	-	196 522	(+ 219)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



# O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 15-dekabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 918 531	9 494
Andijon viloyati	3 484 425	18 311
Buxoro viloyati	2 082 553	10 566
Jizzax viloyati	1 361 342	3 866
Qashqadaryo viloyati	2 793 269	15 655
Navoiy viloyati	1 256 861	2 852
Namangan viloyati	3 555 871	12 683
Samarqand viloyati	4 204 548	44 667
Surxondaryo viloyati	2 962 337	17 424
Sirdaryo viloyati	826 587	2 691
Toshkent viloyati	3 481 632	17 126
Farg'ona viloyati	4 029 516	24 280
Xorazm viloyati	2 230 373	9 362
Toshkent sh.	2 560 102	24 486
<b>Jami</b>	<b>36 747 947</b>	<b>213 463</b>

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>





# Olimlar koronavirusning “Omicron” varianti “Delta” shtammiga qaraganda 70 barobar tez ko‘payishini aniqladilar

Gonkong universiteti (HKUMed) qoshidagi LKS tibbiyot maktabi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, koronavirusning “Omicron” shtammi “Delta” shtammi va asl SARS-CoV-2 virusiga qaraganda inson bronxlarida 70 baravar tezroq yuqadi va ko‘payadi [2].


“Mazkur ma’lumot “Omicron” shtammi nima sababdan insonlarga oldingi variantlarga qaraganda tezroq yuqishi mumkinligini anglatishi mumkin”, dedi HKUMed bayonotida.



Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Omicron” o‘pka infeksiyasi holatlari asl SARS-CoV-2 virusiga qaraganda ancha past va bu kasallikning kamroq ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin, deb ta’kidlamoqda mutaxassislar [3].

Janubiy Afrikada koronavirusining yangi Omikron shtammi aniqlangan edi. JSST tomonidan “tashvishli” deb tasniflanib, uni “Omicron” deb nomladi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, virusning yangi varianti nafaqat jiddiy mutatsiyaga uchragan, balki “Delta shtammi”ga qaraganda odamdan odamga oson yuqishi ham mumkin.

# Moderna COVID-19 vaksinasi virusning turli xil variantlariga qarshi samarali



Kaliforniyaning Kaiser Permanente kompaniyasi tomonidan Britaniya Tibbiyot jurnalida chop etilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Moderna COVID-19 vaksinasining ikki dozasi SARS-CoV-2 ning barcha variantlariga qarshi yuqori samarali ta'sir qilib, ammo, "Delta" variantiga qarshi emlashdan so'ng, vaqt o'tishi bilan vaksinaning samaradorligi kamaygani kuzatilgan [4].

"Biz ikki dozali Moderna COVID-19 vaksinasining yuqori samaradorligini ko'rsatadigan tadqiqot o'tkazdik, ammo Delta varianti 2021 ning erta yozida ustun bo'lganligi sababli ushbu variantga qarshi samaradorlik haqida savollar yuzaga keldi", dedi tadqiqot rahbari Katya Bruksvort.

Tadqiqotda SARS-CoV-2 uchun ijobiy natija bergan 8153 kishi ishtirok etib, namunalar 2021-yil 1-martdan 27-iyulgacha olindi. Ularning 91,3 foizi vaksinalar bilan emlanmagan bo'lib, 1,4 foizi Moderna vaksinasining 1 dozasi va 7,3 foizi Moderna vaksinasining 2 dozasi qabul qilishdi [3].

Ushbu namunalarning 5186 tasi uchun variantlar aniqlangan; 39,4% Delta, 27,7% Alpha, 11,4% Epsilon, 6,9% Gamma, 2,2% Iota, 1,4% Mu va 11,1% boshqa variantlar. Ushbu tadqiqotlar vaqtida "Omicron" varianti hali Janubiy Kaliforniya mintaqasida aniqlanmagan edi.

Moderna COVID-19 infeksiyaga qarshi ikki dozali vaksinasining samaradorligi variantlar bo'yicha: Delta - 86,7%, Mu - 90,4%, Alpha - 98,4%. Boshqa variantlarda 96 dan 98% gacha aniqlandi.

2 dozali Moderna vaksinasini qabul qilgan insonlar orasida Delta bilan bog'liq kasalxonaga yotqizilish holatlari yuzaga kelmagan. Delta bilan kasalxonaga yotqizilganlar orasida vaksinasining samaradorligi 97,5% ni tashkil etdi. Ikki dozali Moderna COVID-19 vaksinasini olgan odamlar orasida statsionar o'lim holatlari kuzatilmadi. Delta variantiga qarshi Moderna COVID-19 vaksinasining 2 dozasi samaradorligi 18 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan odamlarda 87,9 foizni, 65 va undan katta yoshdagi odamlarda esa 75,2 foizni tashkil etdi.



## Yevropa Ittifoqida Johnson & Johnson vaksinasi uchun kuchaytiruvchi dozasi tavsiya etildi

Yevropa Ittifoqi sog'liqni saqlashni tartibga solish organi Johnson & Johnson COVID-19 vaksinasi uchun kuchaytiruvchi dozasi 18 va undan katta yoshdagi fuqarolarga birinchi dozadan keyin kamida ikki oy o'tgach yuborishni tavsiya qildi [5].

Yevropa Tibbiyot agentligi (EMA) Johnson & Johnson vaksinasi uchun kuchaytiruvchi dozalarini ruxsat berish bo'yicha tavsiyasi, qo'shimcha inyeksiya COVID ga olib keladigan SARS-Cov-2 koronavirusiga qarshi antitanalarning ko'payishiga olib kelishini ma'lum qildi.




Regulyator shuningdek, Pfizer-BioNTech yoki Moderna [6] dan mRNA vaksinalarining ikki dozadan so'ng preparatning kuchaytiruvchi dozasi qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi.





# Britaniya havo oqimi bilan boshqariladigan koronavirusning yangi variantlariga qarshi vaksinani sinovdan o'tkazmoqda



Britaniya virusning kelajakdagi variantlaridan himoya qilish maqsadida yangi ninasiz COVID-19 vaksinani sinovdan o'tkazishni boshladi [7]. Havo reaktiv vaktsina Kembrij universiteti professori Jonatan Xini va DIOSynVax biotexnologik kompaniyasi bosh direktori tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlar 18 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilarda Sautgemptondagi NIHR Klinik markazida o'tkazish rejalashtirilgan.

"Bu biz ishlab chiqayotgan universal koronavirus vaktsinasini yaratish yo'lidagi birinchi qadam bo'lib, u bizni nafaqat Covid-19 variantlaridan, balki kelajakdagi koronaviruslardan ham himoya qiladi. Yangi variantlar paydo bo'lishi va immunitet zaiflasha boshlagani uchun bizga eng yangi texnologiyalar kerak bo'ladi.", dedi



amerikalik professor [8].



Zamonaviy COVID-19 vaktsinalari immunitet tizimida antitanalar ishlab chiqarishga olib keladigan antigenlarni kodlash uchun virusli spayk oqsildan olingan genlardan foydalanadi. Yangi vaktsina, boshqalardan farqli o'laroq, tadqiqotchilar ko'proq himoyani ta'minlaydigan koronavirus antigenlarining kengroq oilasiga taqlid

qilish uchun prognoz metodlarini qo'llaydi.



COVID  
19

Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (16.12.2021)
2. "Омикрон-штамм" размножается в 70 раз быстрее "дельты" – ученые // <https://www.zakon.kz/6002164-omikron-shtamm-razmnozhaetsia-v-70-raz-bystree-delyty-uchenye.html> (16.12.2021)
3. Омикрон-штамм размножается в 70 раз быстрее, чем "дельта", выяснили ученые // <https://ria.ru/20211215/omikron-shtamm-1763825724.html> (16.12.2021)
4. Moderna COVID-19 vaccine effective against virus variants // <https://www.eurekalert.org/news-releases/937756> (16.12.2021)
5. Вакцина Moderna COVID-19 эффективна против разных вариантов вируса // <https://poisknews.ru/koronavirus/vakczina-moderna-covid-19-effektivna-protiv-raznyh-variantov-virusa/> (16.12.2021)
6. EU regulator backs J&J COVID-19 booster dose for adults // <https://www.reuters.com/world/europe/eu-regulator-backs-jj-covid-19-booster-dose-adults-2021-12-15/> (16.12.2021)
7. В ЕС рекомендовали введение бустерной дозы вакцины от Johnson & Johnson // <https://nv.ua/world/countries/vakcina-ot-johnson-johnson-v-es-rekomendovali-vvedenie-busternoy-dozy-poslednie-novosti-50202302.html> (16.12.2021)
8. Trial begins of needle-free Covid vaccine targeting new variants // <https://www.bbc.com/news/uk-england-59642182> (16.12.2021)
9. В Британии тестируют безигольную COVID-вакцину, которая будет защищать от новых вариантов коронавируса // <https://coronavirus.tsn.ua/ru/v-britanii-testiruyut-bezigolnuyu-covid-vakcinu-kotoraya-budet-zaschischat-ot-novyh-variantov-koronavirusa-1932949.html> (16.12.2021)



**COVID  
19**

**Coronavirus  
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021